

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Y.Hasanov, E.A.Fayziev	
Inson va tabiat uyg'unligini landshaftlarda ekologik turizm rivojlantirishdagi roli	404
X.U.Usmanova, B.M.Murodov, Z.A.Smanova, X.Sh.Bobojonov	
Конституционные основы экологической безопасности и устойчивого развития Узбекистана: от права к реальным действиям	409
X.U.Usmanova, Z.A.Smanova, X.Sh.Bobojonov	
Галлий: экологические риски, методы анализа и перспективы применения	414
M.E.Djurayev, A.A. Kenjayev, I.K.Aripov, C.İsa	
Zamonaviy gis texnologiyalaridan foydalanib, O'zbekistonda havo sifatini baholash	426
I.K.Aripov	
Ekologik monitoringni gat (GIS) yordamida tashkil etish.....	429

TUPROQSHUNOSLIK

M.I.Aktamov, M.T. Isag'aliyev, B.M. Qo'chqorov	
Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xususiyatlari va meliorativ holati	432
Y.A.Usmanova, O.X.Ergasheva	
Iqlim o'zgarishi sharoitida sanoatlashgan hudud atrofida tarqalgan tuproqlarning unumdorlik holati va ulardan samarali foydalanish	436
D.M.Xoldarov, D.F.Karimova, U.B.Mirzayev, A.O.Sobirov	
Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining galogenetik xususiyatlari.....	441

ILMIY AXBOROT

B.P.Maxkamov	
Анализ зарубежных инновационных разработок в области оценки и снижения селе-паводковых рисков	448
Ch.S.Abdujabborova	
Аллоксан диабет sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasi yuqori o'tkazuvchan porasiga "As Lupinus" ning va glikorazmulining qiyosiy ta'siri	452
A.Q.Nuritdinov, O.G.Abdullayev	
Neft shlamdan yoqilg'i olish texnologiyasi.....	457
O.M.Umarova	
Sachratqi o'simligi ildiz va barglarida suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida tahlil qilish.....	460
B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova	
So'x daryosi baliqlarining uzunlik-og'irlik munosabatlari hamda to'yinganlik indeksi.....	467



UO'K: 910.5.

**INSON VA TABIAT UYG'UNLIGINI LANDSHAFTLARDA EKOLOGIK TURIZM
RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI****РОЛЬ ГАРМОНИИ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ В ЛАНДШАФТАХ В РАЗВИТИИ
ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ТУРИЗМА****THE ROLE OF HARMONY BETWEEN HUMANS AND NATURE IN LANDSCAPES IN THE
DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM****Hasanov Jasur Yusufovich¹** ¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali**Fayziev Elyor Alievich²** ²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali**Annotatsiya**

Maqolada inson va tabiat uyg'unligi, insonning landshaftlar qiyofasini o'zgartirishdagi ro'li, tabiiy va antropogen landshatlarning ekoturistik imkoniyatlari, barqaror rivojlanish konsepsiyasi.

Аннотация

В статье рассматриваются гармония человека и природы, роль человека в изменении облика ландшафтов, экотуристический потенциал природных и антропогенных ландшафтов, а также концепция устойчивого развития.

Abstract

The article discusses the harmony of man and nature, the role of man in changing the appearance of landscapes, the ecotourism potential of natural and anthropogenic landscapes, and the concept of sustainable development.

Kalit so'zlar: Inson va tabiat, tabiiy landshaftlar, antropogen landshagtlar, ekoturizm, "Avesto" ta'limoti, atrof muhit, geografik determinizm.

Ключевые слова: Человек и природа, природные ландшафты, антропогенные ландшафты, экотуризм, учение «Авесты», окружающая среда, географический детерминизм.

Key words: Man and nature, natural landscapes, anthropogenic landscapes, ecotourism, "Avesta" doctrine, environment, geographical determinism.

KIRISH

Tarixida inson va tabiat uyg'unligi masalalari bilan falsafa, tabiatshunoslik fanlari – fizika, biologiya, geografiya; ijtimoiy fanlar tarix, sotsiologiya, psixologiya va aholishunoslik kabi fanlarning shug'ullanishi ta'kidlangan. Tadqiqotda mavzuni yoritish maqsadida faqat falsafa, geografiya va ekologiya bo'yicha olib borilgan ilmiy nazariyalar, tadqiqotlar va konsepsiyalarga to'xtalamiz. Avvalambor, "inson", "tabiat" tushunchalari nimani anglatadi? degan savolga yechim topaylik. Inson tabiat bilan hamisha uzviy aloqadorlikda yashaydi. Insonni tabiatdan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu hech bir isbot talab qilmadigan aksiomadir. Tabiatda inson uchun zarur bo'lmagan va muhim ahamiyat kasb etmaydigan narsaning o'zi yo'q, u tabiat moddiy ne'matlarining asosiy iste'molchisi sifatida ham, sihat-salomatligini tiklash ob'ekti sifatida ham, shod-xurramlik, ma'naviy-ruhiy barkamollikning asosi sifatida ham ahamiyati beqiyos[1].

"Avesto"da talqin etilishicha, insonning asosiy burchi haqqoniy hayot tarzini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Shuning uchun ham "Haqiqat oliy sharofatdir", deyiladi [Jo'raev N., 2015]. Insoniyatning tabiat bilan aloqasi inson mavjud ekan abadiy va zarurdir. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, inson va jamiyatning tabiatga, tabiatning esa ularga ta'siri juda katta bo'lib, u inson ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv zaruriyatdir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«Tabiat tushunchasi» tor ma'noda bizni o'rab turgan butun borliq ma'nosida emas, balki insoniyatni o'rab turgan tabiiy makon sifatida qabul qilsak, bu tushuncha mutlaqo boshqacha ma'no kasb etadi. Bu holatda tabiat deganda inson yashashi uchun butun moddiy dunyo tushuniladi [Lavrinenko V.N., 1995]. Bizni o'rab turgan borliqning ahamiyati va mohiyatini muhimligi allaqachon isbotlab berilgan bo'lib, buni Lao-Szi, Konfutsiy, Demokrit, Gippokrat, Platon, Aristotel, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Jan Boden va boshqa faylasuflar ta'limotlarida ko'rishimiz mumkin [3].

Geografik diterminizmning asoschisi bo'lgan fransuz faylasufi Sharl Monteskyo (1689-1755) shunday deb yozgan: «iqlim xukumronligi barcha hukmronlikdan ustundir, odamlar mehnati yordamida yerni yashash uchun yana ham qulay qilib olganlar». Bu g'oya K.Ritter, F.Ratsel, G.T.Bokl, E.Reklyu, L.M.Mechnikov va boshqalar tomonidan yanada rivojlantirildi. Masalan, T.G.Bokl (1885) ning ta'kidlashicha biror bir jismning insonga ta'sir ko'rsatish darajasini aniqlashda, ularni to'rt guruhga ajratishimiz mumkin: iqlim, ovqat, yer va tabiatning umumiy ko'rinishlari [5]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Atrof-muhitni ma'nosini to'laroq anglatish maqsadida xilma-xil tushunchalar ishlatilgan, bularga geosfera, biogeosfera, ekosfera, noosfera, landshaft sferasi va boshqalar. Biz inson ta'siriga bog'liq bo'lmagan, obektiv ravishda mavjud bo'lgan tabiatga nisbatan «bokira» iborasini qo'llasak, inson aqlu-zakovati bilan yaratilgan tabiatga nisbatan «antropogen» iborasini qo'llaymiz va uning yaratuvchisi - inson bo'lib, u yaratilgan antropogen (madaniy) muhit bo'lib hisobanadi.

Inson butun tanasi, jismi va qoni bilan tabiatga mansubdir. Inson doimo tabiat bilan biologik va ijtimoiy o'zaro ta'sirda hamda munosabatlarda dialektik bir butunlikda turadi. Shunday qilib, inson organizm sifatida va energetik jihatdan doimo tabiatdagi jarayonlar bilan bevosita aloqadorlikda bo'lib, bir daqiqa ham tabiiy muhit bilan aloqasiz yashay olmaydi. Shu bilan birga evolyusion zinapoyada insonga nisbatan pastda turuvchi tirik organizmlar va turlar oziqlanish muhitiga passiv harakatda bo'lsa, inson o'zining yashash muhitiga nisbatan aktiv munosabatda bo'lib, uni o'ziga moslashtiradi hamda muvofiqlashtiradi.

Insonning paydo bo'lishi tabiatga ta'sir ko'rsatishning yangi mexanizmlarini shakllantiruvchi antropogen faktorining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Inson o'zining hayotini saqlash uchun tabiat bilan doimo bevosita munosabat (modda va energiya almashinuvi) jarayonida bo'lib turadi. Butun insoniyat tarixining vujudga kelishi va rivojlanishi tabiat bilan bevosita o'zaro aloqada hamda ta'sirda bo'ladi, buni anglash va fahmlash inson ongining tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro munosabatni to'g'ri baholash zarur.

Ma'lumki, insonlar qadimgi davrlarda yovvoyi tarzda hayot kechirgan bo'lsalar, keyinchalik jamoa bo'lib yashab, tabiatga o'z hukmini o'tkazib kelishgan. Hozirda inson tafakkuri shu qadar chuqur rivojlandiki, so'nggi bir asr mobaynida energetik resurslar yuz marta, qurollanish darajasi esa million hissaga o'sdi. Bunday hol ona-sayyoramiz va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

Inson o'z taraqqiyoti davomida qo'l mehnatidan mashinalashgan, so'ngra avtomatlashgan ishlab chiqarishiga o'tdi. Bu nafaqat sanoatda, balki dexqonchilikda ham o'z aksini topdi, ya'ni qishloq xo'jaligi ham mexanizatsiyalashdi, ishlab chiqarishda avtomatlashgan texnologiyalar asosiy o'rin egalladi. Qishloq xo'jalik ekinlari hosidorligini oshirish uchun yangi-yangi biotexnologiyalar, kimyoviy usullar keng joriy etildi. Natijada, inson faoliyati ta'sirida Yer yuzasi relefi, atmosfera havosi, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami kuchli darajada o'zgarib ketdi [3].

Kishilik jamiyatidagi bir tuzumning o'rnini olgan navbatdagi yangi tuzumda insonning tabiiy boyliklardan foydalanishi kengayishi natijasida, uning tabiatga salbiy ta'siri orta bordi. Jumladan, Zarafshon daryosi bo'ylaridagi qalin to'qayzorlarni qadim zamonlardan qisqarib ketganligi fikrimizga isbot bo'ladi. Boshqa hududlarda ham dehqonchilikni rivojlanishi uchun yangi yerlar o'zlashtirilgan, botqoqliklar quritilgan, relef o'zgartirilgan, tabiiy o'simlik qoplami yo'q qilingan. Ana shunday faoliyat sababli turli hasharotlar, qurt-qumursqalar va kemiruvchilarning hayot kechirishi uchun qulay sharoit yuzaga kelgan. Ularning behisob ko'payib ketishi sababli qishloq xo'jaligiga, shu jumladan, dehqonchilikka katta zarar yetadigan bo'lgan [4].

Insoniyat o'zining tabiatga ko'rsatayotgan zararli ta'sirini asta-sekin anglay bordi. Xususan, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida jahonning ko'pgina mamlakatlarida tabiatni muhofaza qilish borasida ilk harakatlar vujudga keldi. Bundan 134 yil muqaddam amerikalik olim P.Marshning «Inson va tabiat» kitobi nashr etilgan. Muallif unda tabiatga inson ta'sirining salbiy oqibatlarini to'g'risidagi dalillarni ilk bor tahlil etib, tabiatda muvozanatni saqlash zarurligini isbotlab berdi. 1872 yilda jahonda ilk bor yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish jamiyati tuzilib, huddi o'sha yili AQShda Yellouston milliy parki tashkil qilindi. Yevropada tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi jamiyat Shveysariyada tuzilgan. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi Xalqaro kengash Bern shahrida chaqiriladi.

Binobarin, XIX asr oxiri XX asr boshlarida garchi tabiatni muhofaza qilish fondi vujudga kelgan bo'lsa-da, bu o'sha mahalda ayrim hayvon, o'simlik turlari hamda noyob tabiiy ob'ektlarining muhofaza etishni ko'zda tutib, bu ishga faqat biologik muammo sifatida qaralgan. Sug'orish ishlarini pala-partish olib borish, sug'orish shahobchalaridan betartib foydalanish oqibatida ekin maydonlarning ekologik holati buzilib, unumdorligi yo'qoldi. Bunga almaslab ekish, agrotexnik qoidalarining buzilishi kabilar qo'shilib, og'ir oqibatlarga olib keldi.

O'lkamizda tabiiy sharoitning yomonlashuviga, bulardan tashqari zaharli kimyoviy moddalar, mineral o'g'itlar va boshqa shu kabi vositalardan keragidan ortiqcha foydalanish ham sabab bo'lmoqda. Sho'ro tuzumi davrida yiliga 1 ga maydonga o'rtacha 50 kg dan ziyod zaharli kimyoviy moddalar qo'llanganki, bu borada sobiq ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston oldingi o'rinni egallagan. Buning oqibatida aholi salomatligi katta ziyon yetkazilib, gepatit, oshqozon-ichak va yurak xastaliklari avj olgan.

Tabiiy sharoitni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tog' o'rmonlarining yo'qotila boshlashi xavfi ancha ilgari boshlangan. XX asr boshlarida o'lkamizda 1,5 mln. ga tog' o'rmoni mavjud bo'lgan bo'lsa, sobiq ittifoq davrida ularning katta qismi yo'q qilindi va tiklab bo'lmas darajaga keldi. Azaldan suv manbalarini saqlash vazifasini o'tab kelgan archazorlarning yo'q qilinishi minglab asrlar davomida vujudga kelgan muzliklarning tez erishiga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizdagi sanoat chiqindilari 1 mlrd t dan ortib 10 ming ga dan ziyod yerni egallab yotibdi. Bunday chiqindilar takibida nodir hamda rangli metallar va boshqa foydali qazilmalardan tashqari zaharli birikmalar ham mavjud. Bundan tashqari, O'zbekistonda yiliga 30 mln. t dan ziyod maishiy chiqindilar hosil bo'ladi. Shularning 10 % i Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Ular axlatxonalarga, jarlik va ariqlarga tashlanmoqda. Shahar chiqindilarining 40% i makulatura, 25-40% i oziq-ovqat chiqindisi, 4-5% i latta-putta, 3-5% i qora va rangli metall, 1-2 % atrofida plastik mahsulotlar bo'lsa, 4% i shisha idish siniqlaridan iborat Bularni qayta ishlab iqtisodiyotga ham foyda keltiriladi, atrof-muhit holati ham yaxshilanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonning tabiatga ta'siri o'zaro aloqadorlikka va ilmiylikka asoslanishi kerak. Bu barchamiz bilsak-da, biroq o'z amaliy faoliyatimizda har vaqt ham unga qarab ish tutavermaymiz. Tabiat bir butun eng yirik tabiiy geografik kompleksdir. Ammo, aksariyat hollarda iqtisodiyotning turli sohalarida undan har xil foydalanadi. Demak, tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish lozim. Aytaylik, o'rmon yog'och va kimyoviy xomashyo manbaigina emas. O'rmon-kislorod, yovvoyi qushlar va hayvonlar yashaydigan, turli daraxt formatsiyalari o'sadigan makondir. Qolaversa, o'rmon suv saqlash, iqlimni shakllantirish va dam olish joyi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, o'rmonlardan ilmiy asoslangan holda kompleks foydalanish zarur.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan foydalanishga turli mintaqqa, o'lka va hatto landshaftning mahalliy sharoitni, u yoki bu boylikning shu joydagi holatini hisobga olgan holda hududiy yondashish kerak. Masalan, O'rta Osiyoning tog'li hududlarida yoki daryolarning yuqori qismida o'rmon, asosan, suvni saqlash, tuproq eroziyasining oldini olish, bir so'z bilan aytganda, landshaft ahamiyatga ega, shu boisdan uni qirqib bo'lmaydi.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga qaraganda, atrof muhitning ifloslanishidan ko'rilayotgan zararning juda katta qismi sog'liqni saqlashga, 30%i uy-joy kommunal xo'jaligiga, 10% i sanoatga, 5% i qishloq xo'jaligiga, 5% iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi. Binobarin, tabiatni muhofaza qilishni tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirib, ularni asrashning samarali mexanizmi yaratilishi zaruratga aylanmoqda. Zero, atrof-muhit muhofazasining aniq

EKOLOGIYA

amaliy mexanizmi ishlab chiqilmas ekan, hatto eng maqbul ekologik rejalar ham muvaffaqiyat qozonolmaydi.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazaga yo'naltirilgan qonunchilik tizimi yaratilgan, lekin eng muhimi ana shu qonunlarga amal qilishda. Xullas, tabiatni muhofaza qilish murakkab muammo bo'lib, uning hozirgi bosqichi ekologik ongni oshirish, insonning tabiatga ta'sirini bir maromga keltirishni ilmiy nazariyasini ishlab chiqishni taqozo etadi [3].

Yer landshaft sferasining taraqqiyotda inson va jamiyatning paydo bo'lishi muhim voqelikdir. Natijada, vujudga kelgan "tabiat-jamiyat" tizimi turli qarama-qarshiliklardan iborat bo'lib, bunda "jamiyat" ning faolligi alohida ajralib turadi. Muayyan landshaft Yer landshaft sferasi tarkibida, uning bir qismi sifatida ajratilib, ularga inson omilining ta'siri ma'lum darajada sezilmoqda. Landshaft sferasi taraqqiyoti davomida landshaftlar dinamik holatda bo'lib, ular makon va zamonda o'zgarib turgan. Buni F.N.Milkov, A.B.Basalikas, G.Ye.Grishankov, V.V.Kozin, K.N.Dyakonov, A.Yu.Reteyum va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

F.N.Milkov (1986) Yer landshaft sferasining rivojlanish tarixini tahlil qilib: 1) tobiogen bosqich; 2) biogen bosqich; 3) antropogen bosqichni ajratadi. Yer landshaft sferasi antropogen bosqichini F.N.Milkov (1990) yana to'rt davrga bo'ladi: 1. Eng qadimgi davr – arxeologlarning yuqori paleolit davriga to'g'ri kelib, bu davr taxminan 30 ming yil davom etgan; 2. Qadimgi davr – arxeologlarning mezolit (o'rta tosh asri), neolit (yangi tosh asri) va bronza davrlariga to'g'ri keldi va taxminan 7 ming yil davom etadi; 3. Yangi davr – arxeologlarning temir asridan XX asr o'talarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, taxminan 3 ming yil davom etgan; 4. Eng yangi davr – XX asrning o'rtalaridan boshlanib hozirgacha davom etmoqda [9].

Insoniyat XXI asrga tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirida xilma-xil lokal (mahalliy), regional va global qarama-qarshiliklar, inson xo'jalik faoliyatining ta'siri ostida atrof-muhitda ko'payib borayotgan salbiy o'zgarishlar bilan kirib keldi. Aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi, moddiy ishlab chiqarishning intensivlashuvi, kengayishi, inson bilan tabiatning o'zaro munosabatlari chuqurlashayotgan sharoitda tabiatdan foydalanishning ekologik jihatdan birinchi darajali va maqsadga muvofiq konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligini anglash mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, sayyoramizda vujudga kelgan ana shunday og'ir vaziyatni ko'rgan va anglagan BMT tomonidan bir qancha xalqaro konferensiyalar, sammitlar o'tkazildi. Ana shunday konferensiyalardan birida Rio-de-Janeyro, «Atrof-muhit va rivojlanish» bo'yicha Xalqaro konferensiya 1992 yilda «Barqaror rivojlanish bo'yicha konsepsiya» qabul qilinadi. Bu konferensiyada insoniyat endi an'anaviy model bilan rivojlana olmasligi va endilikda «Barqaror rivojlanish modeli»ga o'tish zarurligi haqida muhim qarorlar va shuningdek, Dunyo hamjamiyatining rivojlanish tamoyillari va mezonlari ifodalangan «XXI asr barqaror rivojlanish jadvali» qabul qilindi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasida «iqtisod – tabiat – jamiyat» triadasining muvofiqlashtirilgan rivojlanish g'oyasi asos qilib olindi.

Konsepsiyada Dunyo Hamjamiyati uchun asosiy maqsad bo'lgan sof ekologiya va sog'lom iqtisodiyotga erishishda hamda dunyo hamjamiyatining kelajakdagi strategiyasi va dasturiy harakati sifatida asosiy maqsadlarga qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi»ga taalluqli bo'lgan, asosiy hujjatlarni ratifikatsiya qildi. «Vena konvensiyasi», «Monreal protokoli», «Iqlim o'zgarishi konsepsiyasi», «Biologik xilma-xillikni saqlash konsepsiyasi», «Cho'llashishga qarshi kurash konsepsiyasi» kibilar bunga misol bo'ladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – bir me'yorda rivojlangan davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimidir. Barqaror rivojlanish deganda hozirgi zamon kishisi ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va barqaror birlashgan munosib hayot tarzini ta'minlovchi hayot talablarini to'liq qondirish bilan birgalikda kelajak avlodlarga ham ulardan foydalanish imkoniyatini qoldirish tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аббасов С.Б. Бадалов Ў.Б. Рекреация ресурсларини географик ўрганиш экотуризм самарадорлигини оширишнинг муҳим омили // Иқтисодийни модернизациялаш шароитида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш истиқболлари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Самарқанд: СамИСИ, 2017. -Б.144-147.

2. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н. Жўраев; таржимон А.Маҳкам.-Т.: Ф.Фулом, 2015.
3. Алибеков Л.А. Ландшафты и типы земель Зарафшанских гор и прилегающих равнин. – Ташкент: Фан, 1982. -151 с.
4. Алибеков Л. Инсон ва табиат. Тошкент: Фан ва технология. 2016. -272 б.
5. Buckle, G. T. - Angliyada tsivilizatsiya tarixi. Ikki jildda. 1895 yil
6. Даосс фалсафаси антологияси. М., 1994. -36 б.
7. Дурович А.П. Маркетинговые исследования в туризме (учебное пособие). – СПб.: Питер, 2008. – 384 с
8. Мильков Ф. Н. Физическая география: учение о ландшафте и географическая зональность. -Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1986. - 224 с.